

SHEKSPIR DRAMALARIDAGI KALAMBURNING POETIK IFODASI

Mizrabova Jeren

O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyati

Buxoro davlat universiteti f.f.f.d.(PhD), dotsenti

Tel: +998907122555

Annotatsiya. Ushbu maqolada U.Shekspirning “Otello” dramasi kalamurning o‘ziga xos poetic xususiyatlari va ularning tarjimada aks ettirilishi muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar. Shekspir, kalambur, tahlil, omonim, polisemiya, antonimiya, omoforma, fonetik hususiyatlar, asliyat matni.

Abstract. This article is devoted to the study of the poetic features of the pun and the problems of ways in reproducing them in translations of drama "Othello" by William Shakespeare.

Key words. Shakespeare, pun, analysis, homonym, polysemy, antonymy, homoform, phonetic properties, original text.

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению поэтических особенностей каламбура и проблемам способов их воспроизведения в переводах драмы Уильяма Шекспира “Отелло”.

Ключевые слова. Шекспир, каламбур, анализ, омоним, полисемия, антонимия, омоформа, фонетические свойства, текст оригинала.

Ma'lumki, kalambur kitobxonga kuchli emosioal-ekspressiv ta'sir etib, uning e'tiborini jalb etuvchi va komik effektga erishmoqlik maqsadida qo'llaniladigan polisemiya, omonimiya yoki talaffuzlar mutanosibligida qurilgan stilistik vositadir. Shuningdek, kalambur ba'zida falsafiy umumlashmaga xos tus olishi ham mumkin va uslubiy vosita kontekstining bu kabi keng doiradagi ma'noviy o'yinlari nozikliklarining lingvopoetik tahlillari juda murakkab vazifadir. Chunki, muallif o'z kalamburi kontekstida niyat qilgan ma'noviy tovlanishlari juda boy va rang-barang va undagi so'z o'yini borasidagi xulosalari tasodifiy xususiyatga ega.

Masalan, U.Shekspirning “Otello” nomli taniqli tragediyasining ilk sahnasi Yago va Rodrigoning Venetsiya ko‘chalarida Otello haqidagi qizg‘in suhbat bilan boshlanadi. Unda Yago qora tanli generalni qanchalik yomon ko‘rishi va harbiy unvonlarni taqsimlashda xodimlarning jamiyatdagi mavqeiga qarab emas balki ularning aqli va xizmatlariga oid topshirayotganligi haqida achchiq g‘azab bilan gapiradi. Shuningdek, Otello Kassioni leytenant deb e'lon qilganida aslida bu martabaga Yago o‘zini ko‘proq munosib deb biladi va buning uchun Mavrdan o‘ch olishini aytadi. Ya'ni, sodiq do‘st ko‘rinishida Otelloning ishonchiga kirib birinchi

imkoniyatdayoq unga xiyonat qilishni rejalashtirib qo'yadi va quyidagi xiazm shaklidagi kinoyali kalamburini keltiradi:

IAGO

We cannot all be masters, nor all masters
Cannot be truly follow'd. [1- el.man.]

Яго

...Не всем дано

Господствовать, и не у всех господ

Надежные прислужники. (M.Loziński tarjmasi) [2- el.man.]

Яго

Ҳамма бирдек бўлавермас хўжайин, илло,

Ҳаммага ҳам хўжайиндек хизмат этилмас. (J.Kamol tarjimsi) [3- el.man.]

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning so'zma-so'z tarjimasini keltiramiz:

Yago. Balki hamma ham rahbar bo'lishga loyiq emasdir, zero hamma rahbarga ham ishonchli yordamchi (xizmatkor) uchrermaydi. (J.Mizrabova)

Asarda Kassioning leytenantlik harbiy unvoniga tayinlovi sabab alamzada bo'lgan Yago Otelloga faqatgina o'zining g'arazli niyatlari amalga oshirishni ko'zlab xizmat qilayotgani va birinchi qo'lay keladigan vaziyatdayoq undan o'ch olish payida ekanligi to'g'risidagi iqrorini keltiradi. Shuningdek, Yago Rodrigo bilan suhbat chog'ida agarda biror kim o'zi rahbarlikka da'vat etganida boshlig'iga bo'ysunmasligi, har kim ham rahbar bo'lishga loyiq emasligi hamda hamma rahbarlarning ham so'zsiz izmida bo'lish bu majburiyat emasligi to'g'risida gapirganda Otelloni nazarda tutadi. Dramaning mazkur sahna ko'rinishida Yago samimiy edi va Rodrigoni o'z tomoniga ag'darib birgalikda Ottelodan o'ch olishda yordam berishini so'raydi hamda shu zahotdan o'zining "sodiq do'st" kabi ijrosini boshlashga qaror qiladi.

U.Shekspirning "Otello" tragediyasidan keltirilgan Yago nutqidagi keyingi kalamburi "poor" va "rich" so'zlarining antonimik munosabatlarida qurilgan.

IAGO

Poor and content is rich and rich enough,
But riches fineless is as poor as winter
To him that ever fears he shall be poor. [1- el.man.]

Яго

Кто беден и доволен, тот богач.

Но бедны, как зима, богатства тех,

Кто одержим боязнью обеднеть. (M.Loziński tarjmasi) [2- el.man.]

Яго

Қаноатли қашшоқ асли чин бадавлатдир,

Эртами-кеч қашшоқлашиб қолишдан кўрқиб,

Қалтираб яшаган бойлар – юпун, камбағал. (Ж.Камол таржиамси) [3- el.man.]

Yuqorida asliyatdan keltirilgan misolning so‘zma-so‘z tarjimasini keltiramiz:

Yago. Asl boylik bu kambag‘allikdagi hotirjamlik va kifoyadir. Cheksiz boyliging bo‘lsa-yu undan qachondir ajralib qolish vahimasi bilan yashaydiganlar ham aslida kashshoqga tengdir.

Asardagi Yago nutqidagi kalamburida pulning haqiqiy kuchi u orqali topilgan baxtu-iqbol yoki xavfzilikni ta'minlay olishi bilan belgilanishi kabi izohlari keltirilgan. Ammo, agarda mol-dunyo hotirjamlik va qanoat olib kelmasa unda boyning tahlikali hayoti qashshoqning kun kechirishidagi havotirli tashvishlari bilan almashadi. Qora tanli general Otello ham Dezdemonadan ajralib qolishidan qo‘rqib rashkdan va Kassioqa nisbatan qora xasad o‘tida yonib tuban qotilikka qo‘l uradi. Mavrni shu holatga keltirgan ayyor Yago o‘zining kalamburida insonning puli ko‘p va martabasi qanchalik yuksak bo‘lmasin asl boylik bu baxt va hotirjamlikda ekanligini istehzoli kinoyasida ta'kidlaydi.

Asardagi Yago nutqidagi kalamburida pulning haqiqiy kuchi u orqali topilgan baxtu-iqbol yoki xavfzilikni ta'minlay olishi bilan belgilanishi kabi izohlari keltirilgan. Ammo, agarda mol-dunyo hotirjamlik va qanoat olib kelmasa unda boyning tahlikali hayoti qashshoqning kun kechirishidagi havotirli tashvishlari bilan almashadi. Qora tanli general Otello ham Dezdemonadan ajralib qolishidan qo‘rqib rashkdan va Kassioqa nisbatan qora xasad o‘tida yonib tuban qotilikka qo‘l uradi. Mavrni shu holatga keltirgan ayyor Yago o‘zining kalamburida insonning puli ko‘p va martabasi qanchalik yuksak bo‘lmasin asl boylik bu baxt va hotirjamlikda ekanligini istehzoli kinoyasida ta'kidlaydi.

“Otello” tragediyasidagi Yago salbiy obraz bo‘lganligi sabab mazkur qahramon nutqi fonologik tuzilishining o‘ziga xos xususiyatlari ham emotsional-negativ pragmatik saviyasiga ega bo‘lib kitobxonda ham salbiy xis tuyg‘ularini uyg‘otishi tabiiydir. Asliyat kalamburining mazkur xususiyatlarini rus mutarjimi “b” va “d” shunigdek, o‘zbek tarjimoni ham o‘z o‘girmalarida “q” va “sh” tavushlarining alliteratsiyasi yordamida qayta yaratishga uringanlar.

Demak, kalambur kabi uslubiy vositasini o‘girmada qayta voqelantirish juda murakkab vazifadir chunki unda adekvatlik, kinoya, istehzo, shakl va mazmun shuningdek, xamohanglik kabi omillarni asrab qolish talab etiladi. Ba'zida, kalambur o‘girmasi amaliyoti sohasida tarjima transformatsiyalari ish bermasligi ehtimolidan ham holi emas, chunki har bir kalambur o‘ziga xos alohida murakkab san'at asaridir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. <https://shakespeare.folger.edu/shakespeares-works/king-lear/entire-play/>
2. <https://predanie.ru/book/218131-korol-lir-per-boris-leonidovich-pasternak/>
3. Ходакова Е.П. Словесная шутка. // Русская речь, 1974, №3, с.40-48.